



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

INTERCULTURAL HARMONY AND RELIGIOUS TOLERANCE AS THE CONSTITUTIONAL BASIS OF UZBEKISTAN’S STATEHOOD STABILITY

Arziev Samug’

Academic Lyceum named after M. Vosikova, Tashkent State University of Law

Abstract: *This article analyzes the role of interethnic harmony and religious tolerance in the stability of statehood in the Republic of Uzbekistan from a constitutional-legal perspective. The theoretical and practical aspects of the issue are explored based on the relevant articles of the Constitution of the Republic of Uzbekistan, norms and standards of international law, as well as the scholarly views of leading national and foreign experts. Furthermore, the existing legislative system regulating national and religious relations in Uzbekistan and its significance in modern state-building are extensively covered.*

Keywords: *Interethnic harmony, Religious tolerance, Constitutional foundations, Uzbekistan, State stability, Civil society, Rule of law state*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenlikning davlatchiligi barqarorligidagi o‘rni konstitutsiyaviy-huquqiy nuqtai nazardan tahlil etiladi. Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tegishli moddalariga, xalqaro huquq normalari va standartlariga, hamda yetakchi o‘techestvenniy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlariga tayanilgan holda masalaning nazariy va amaliy jihatlarini ochib berilgan. Shuningdek, O‘zbekistondagi milliy va diniy munosabatlarni tartibga soluvchi amaldagi qonunchilik tizimi, uning zamonaviy davlatchilik qurilishidagi ahamiyati keng yoritilgan.*



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO’NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

***Kalit so’zlar:** millatlararo totuvlik, diniy bag’rikenglik, konstitutsiyaviy asoslar, O’zbekiston, davlat barqarorligi, fuqarolik jamiyati, huquqiy davlat.*

Zamonaviy dunyoda ko’p millatli va ko’p konfessiyali davlatlarning ichki barqarorligini ta’minlashda millatlararo munosabatlar va diniy bag’rikenglik masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda dunyo bo’ylab yuz berayotgan etnik va diniy nizolar nafaqat alohida davlatlar, balki butun mintaqalar barqarorligiga tahdid solmoqda. Bunday sharoitda O’zbekistonning ko’p yillar davomida munosib namuna bo’lib kelayotgan tajribasi alohida e’tiborga loyiqdir. O’zbekiston Respublikasi 130 dan ortiq millat vakillari hamda 16 dan ortiq diniy konfessiya vakillarini o’z bag’rida jamlagan ko’p millatli va ko’p konfessiyali davlatdir.¹ Bunday etnik va diniy xilma-xillik sharoitida ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni saqlash davlat siyosatining ustuvor yo’nalishi sifatida belgilangandir. Prezident Shavkat Mirziyoyevning ta’kidlashicha: “O’zbekiston ko’p asrlik tarixiy tajribaga ega bo’lgan, turli din va madaniyat vakillarini o’zida birlashtirgan qadimiy o’choq bo’lib, bugungi kunda ham bu an’analarni avaylab-asrash, kelajak avlodga yetkazish bizning muqaddas burchimizdir”.²

Ushbu maqolaning ilmiy ahamiyati shundaki, O’zbekistonda milliy va diniy xilma-xillik sharoitida ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashning konstitutsiyaviy-huquqiy mexanizmlari kompleks ravishda tahlil etiladi. Maqola O’zbekiston Respublikasi

¹O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari. O’zbekistonning demografik holati (2023-yil yanvar-dekabr holatiga) // Yillik statistik hisobot. – Toshkent, 2023. – [Elektron manba]. – Kirish rejimi: <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2>

² Mirziyoyev Sh.M. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqi, 2023-yil 19-sentabr // “Xalq so’zi” gazetasi. – 2023. – 20-sentabr. – № 194 (8537). – [Elektron manba]. – Kirish rejimi: <https://president.uz/uz/lists/view/6673>



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO’NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

Konstitutsiyasining yangi tahriri (2023), xalqaro huquq normalari va zamonaviy huquqshunoslik fani yutuqlari asosida yozilgan.

“Millatlararo totuvlik” (interethnic harmony) tushunchasi siyosiy fanlar va huquqshunoslik adabiyotida turlicha talqin etiladi. Akademik Yu.V. Arutunyan o’zining asosiy tadqiqotida millatlararo totuvlikni “Etnik guruhlar o’rtasidagi ziddiyatlar yo’qligi holati emas, balki ularning faol o’zaro hamkorligi asosida qurilgan ijtimoiy-siyosiy birlik” sifatida ta’riflaydi.³ G. Allport o’zining “Taassub tabiati” (The Nature of Prejudice, 1954) asarida bag’rikenglikning shakllanishida shaxslararo muloqot va ijtimoiy munosabatlarning rolini asoslab berdi. Olimning kontakt gipotezasi (contact hypothesis) keyinchalik dinlararo munosabatlar sohasida ham keng qo’llanila boshlandi.⁴ O’zbek olimi, professor N.N. Mamatov millatlararo munosabatlarni konstitutsiyaviy tartibga solish masalalarini o’rganib, O’zbekistondagi huquqiy mexanizmlar xalqaro standartlarga mos kelishini asoslagan.⁵ Shu bilan birga, professor A. Saidov o’zining qiyosiy konstitutsiy huquqi bo’yicha tadqiqotlarida O’zbekiston modelini G’arb demokratiyalari bilan taqqoslab, o’ziga xos milliy modelning shakllanganligi haqida xulosa chiqargan. Diniy bag’rikenglik (religious tolerance) xalqaro huquq sohasida asosan 1981-yilgi BMT Deklaratsiyasi - Din yoki e’tiqod asosida toqatsizlik va kamsitishning barcha shakllarini bartaraf etish to’g’risidagi Deklaratsiya orqali normativlashtirilgan. Ushbu hujjat din erkinligi va dinlararo

³ Арутюнян Ю.В., Дробижина Л.М., Сукоколов А.А. Этносоциология: Учебное пособие для вузов. – М.: Аспект Пресс, 1998. – 271 с. <https://str.uust.ru/dept/5>

⁴ Allport, G. W. (1954). The Nature of Prejudice. Cambridge, MA: Addison-Wesley. 537 p. Identifikator: OCLC 1149254884

⁵ Mamatov N.N. O’zbekiston Respublikasida milliy munosabatlarning konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solinishi: Monografiya. – Toshkent: TDYuU, 2019. – 216 b.



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO’NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

bag’rikenglikni fundamental inson huquqi sifatida e’tirof etadi. Yevropa kengashining Venetsiya komissiyasi “Diniy erkinlik va bag’rikenglik to’g’risida” qabul qilgan xulosalarda ta’kidlanishicha, bag’rikenglik passiv toqat qilish emas, balki davlat tomonidan faol ravishda qo’llab-quvvatlanadigan siyosat bo’lishi kerak.

O’zbekiston Respublikasining 2023-yil yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi millatlararo totuvlik va diniy bag’rikenglikni davlatning asosiy tamoyillari sifatida mustahkamlagan. Xususan:

Konstitutsiyaning 8-moddasi: "O’zbekiston xalqini millati, irqi, etnik kelib chiqishidan qat’i nazar, O’zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi";

Konstitutsiyaning 18-moddasi: barcha fuqarolar qonun oldida tengdir va hech kim kelib chiqishi, dini, e’tiqodi asosida kamsitilishi mumkin emas;

Konstitutsiyaning 31-moddasi: vijdon erkinligi kafolatlanadi va barcha fuqarolar har qanday dinga e’tiqod qilish yoki hech qanday dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega;

Konstitutsiyaning 34-moddasi: fuqarolarning milliy-madaniy muhtojliklarini qondirish, o’z ona tilidan foydalanish huquqi kafolatlanadi.⁶

Konstitutsiyaviy normalarni amalga oshirish maqsadida qonunchilik tizimida bir qator maxsus qonun va me’yoriy hujjatlar qabul qilingan:

1. “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to’g’risida” O’zbekiston Respublikasi Qonuni (1998 yil, 2021 yilda yangi tahrirda):⁷ Ushbu qonun din erkinligini kafolatlaydi, diniy tashkilotlarning huquqiy maqomini belgilaydi va diniy munosabatlarda davlat-konfessiya muloqotining asosiy tamoyillarini o’rnatadi.

⁶ O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: Adolat, 2023. <https://lex.uz/docs/6445145>

⁷ O’zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to’g’risida»gi Qonuni, 05.07.2021 yildagi O’RQ-699-son. <https://lex.uz/docs/5491534>



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO’NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

2. “Millatlararo munosabatlar va fuqarolarning milliy-madaniy muhtojliklarini ta’minlash to’g’risida” O’zbekiston Respublikasi Qonuni (2021 yil):⁸ Mazkur qonun milliy madaniyat markazlarining huquqiy asoslarini belgilaydi, ularning faoliyatini qo’llab-quvvatlash mexanizmlarini tartibga soladi.

O’zbekiston Respublikasining “Bag’rikenglik va fuqarolar uyg’unligi milliy dasturi” (2021-2025 yillar): Ushbu dastur millatlararo va dinlararo munosabatlar sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlarini belgilagan kompleks hujjat hisoblanadi.

O’zbekiston bir qator xalqaro huquqiy hujjatlar ishtirokchisi sifatida ulardan kelib chiqadigan majburiyatlarni o’z milliy qonunchiligiga singdirgan. Jumladan:

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to’g’risidagi xalqaro pakt (1966) ning 18-moddasi din va vijdon erkinligini, 27-moddasi esa milliy ozchiliklarning o’z madaniyati, dini va tili huquqlarini kafolatlaydi.⁹ O’zbekiston ushbu pakti 1995-yilda ratifikatsiya qilgan. YUNESCO Madaniy xilma-xillik to’g’risidagi Konvensiyasi (2005)¹⁰ madaniy xilma-xillikning inson uchun zaruriy yashash muhiti ekanligini ta’kidlab, uning saqlanishi uchun davlatlarning aktiv majburiyatlari borligini belgilaydi. O’zbekiston ushbu Konvensiyani 2006-yilda ratifikatsiya qilgan. Milliy yoki etnik, diniy va til ozchiliklariga mansub shaxslarning huquqlari to’g’risidagi BMT Deklaratsiyasi (1992) milliy ozchiliklarning o’z madaniyati va dinidan foydalanish

⁸ O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 15-noyabrdagi PF-5876-son Farmoni bilan tasdiqlangan "Millatlararo munosabatlar sohasida O’zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasi". https://api.scienceweb.uz/storage/publication_files/2015/4714/63a9243046690_2.Falsafa.pdf

⁹ Fuqarolik va siyosiy huquqlar to’g’risidagi xalqaro pakt. BMT Bosh Assambleyasi, 1966-yil 16-dekabr. (18, 27-moddalar). [Elektron resurs]. URL: <https://lex.uz/docs/2640231>

¹⁰ YUNESKO Madaniy ifodalar xilma-xilligi to’g’risidagi Konvensiyasi. – Parij, 2005. [Elektron resurs]. URL: <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000142919>



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO’NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

huquqini asoslab beradi hamda davlatlarning ushbu sohadagi majburiyatlarini belgilaydi.¹¹

Barcha ijobiy ko’rsatkichlarga qaramay, O’zbekistonda millatlararo totuvlik va diniy bag’rikenglikni ta’minlash borasida bir qator muammolar ham mavjudligi e’tirof etilishi kerak. Jumladan:

Birinchidan, diniy ta’lim sohasida standartlashtirish va ekstremistik oqimlarning oldini olish o’rtasidagi muvozanat muammosi dolzarb bo’lib qolmoqda. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, haddan ortiq nazorat diniy jamoalarni yashirinishga va norasmiy tarmoqlarning rivojlanishiga olib kelishi mumkin.²⁷

Ikkinchidan, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi ekstremistik mafkurani tarqatishning yangi yo’llarini ochib bermoqda. Ushbu yangi tahdidlarga qarshi huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish zarurati mavjud.

Yuqorida bayon etilgan tahlillar asosida quyidagi ilmiy xulosalarga kelish mumkin:

Birinchi xulosa. O’zbekistonda millatlararo totuvlik va diniy bag’rikenglik davlatchilik barqarorligining faqat huquqiy kafolati emas, balki tarixi va madaniyati tomonidan shakllantirilgan ijtimoiy fenomen hamdir. Konstitutsiyaviy normalar, xalqaro huquq majburiyatlari va milliy qonunchilik uyg’unligi ushbu sohada yaxlit huquqiy tizim yaratgan.

Ikkinchi xulosa. O’zbekistondagi millatlararo va dinlararo munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik tizimi xalqaro standartlarga umuman muvofiq bo’lib, uni

¹¹BMT Bosh Assambleyasining 47/135-sonli Rezolyutsiyasi. "Milliy yoki etnik, diniy va lisoniy ozchiliklarga mansub shaxslarning huquqlari to'g'risidagi Deklaratsiya", 1992-yil 18-dekabr. [Online version]. URL: <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/declaration-rights-persons-belonging-national-or-ethnic>



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO’NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

amaliyotga tatbiq etish borasida muhim yutuqlar qo’lga kiritilgan. Biroq bir qator muammolar – ta’lim, iqtisodiy adolat, raqamli tahdidlar – hali ham e’tiborni talab etmoqda.

Uchinchi xulosa. O’zbekiston davlatining millatlararo totuvlik sohasidagi tajribasi mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga ega bo’lib, "Markaziy Osiyo modeli" sifatida xalqaro hamjamiyat e’tirofini qozonib bormoqda. Ayniqsa, milliy madaniyat markazlari tizimi, konfessiyalararo muloqot platformalari va mahalla institucional mexanizmlari o’zining samaradorligi bilan ajralib turadi.

To’rtinchi xulosa. Kelajakda millatlararo totuvlik va diniy bag’rikenglikni yanada mustahkamlash uchun fuqarolik ta’limini rivojlantirish, fuqarolik jamiyati institutlarini kuchaytirish, raqamli muhitdagi tahdidlarga qarshi huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish ustuvor yo’nalishlar sifatida tavsiya etiladi.

Xulosa qilib aytganda, millatlararo totuvlik va diniy bag’rikenglik O’zbekiston davlatchiligining tamal toshlaridan biri bo’lib, u nafaqat ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning garovi, balki milliy rivojlanish va xalqaro obro’ning muhim omili hisoblanadi.